



THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TECHNOLOGICAL EDUCATION

Tashova Khadicha Hikmatovna

Master's Degree Student in "Theory and Methodology of Education
and Training (Technological Education)"

Bukhara State Pedagogical Institute

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17707644>

ARTICLE INFO

Received: 19th November 2025

Accepted: 24th November 2025

Online: 25th November 2025

KEYWORDS

Technological education, innovative method, pinboard, debate, chain of thought, case study, show-do-compare, competence, practical skills.

ABSTRACT

This article analyzes the theoretical foundations and practical significance of using innovative methods in technological education. It provides a concise explanation of interactive methods such as Pinboard, Debate, Chain of Ideas, and Case Study, emphasizing their role in developing technical thinking. Additionally, the author's own approach — the "Show - Perform - Compare" method — is presented as an innovative model adapted to technological education. The article offers scientifically grounded recommendations aimed at enhancing students' activity, practical skills, and independent thinking in technical subjects.

ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБУЧЕНИИ

Ташова Хадича Хикматовна

Магистрант по направлению «Теория и методика образования и воспитания
(технологическое обучение)»

Бухарский государственный педагогический институт

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17707644>

ARTICLE INFO

Received: 19th November 2025

Accepted: 24th November 2025

Online: 25th November 2025

KEYWORDS

Технологическое образование, инновационный метод, пинборд, дебаты, цепочка мыслей, исследование случая, покажи-сделай-сравни, компетентность, практические навыки.

ABSTRACT

В статье рассматриваются теоретические основы и практическая значимость применения инновационных методов в технологическом образовании. Кратко освещается роль интерактивных методов, таких как Pinboard, Дебаты, Цепочка идей и Case Study, в развитии технического мышления студентов. Кроме того, представлен авторский подход — метод «Показать - Выполнить - Сравнить» как инновационная модель, адаптированная к технологическому обучению. В статье приведены научно обоснованные рекомендации, направленные на повышение активности обучающихся, развитие практических навыков и



*самостоятельного мышления при изучении
технических дисциплин.*

TEXNOLOGIK TA'LIMDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Toshova Xadicha Hikmatovna

Buxoro Davlat Pedagogika instituti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologik ta'lim) magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17707644>

ARTICLE INFO

Received: 19th November 2025

Accepted: 24th November 2025

Online: 25th November 2025

KEYWORDS

Texnologik ta'lim, innovatsion metod, pinboard, debat, fikrlar zanjiri, keys-stadi, ko'rsat-bajar-solishtir, kompetensiya, amaliy ko'nikma.

ABSTRACT

Mazkur maqolada texnologik ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Pinboard, Debat, Fikrlar zanjiri, Keys-stadi kabi interfaol metodlarning texnik tafakkurni rivojlantirishdagi o'rni qisqacha yoritiladi. Shuningdek, muallif tomonidan qo'llaniladigan "Ko'rsat - bajar - solishtir" metodi texnologik ta'limga moslashgan innovatsion yondashuv sifatida izohlanadi. Maqola texnik fanlarni o'qitishda talabaning faolligi, amaliy ko'nikmasi va mustaqil fikrlashini kuchaytirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kirish Zamonaviy ta'lim jarayoni talabaning mustaqil fikrlashi, amaliy faoliyatni ongli tashkil etishi va o'z ishiga nisbatan mas'uliyatni his qilishi talab etiladigan bosqichga yetdi. Ayniqsa, texnologik ta'lim yo'nalishida nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish hamda o'quv jarayonini talaba faolligiga asoslangan shaklda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

"Innovatsiya" so'zi o'z mazmuniga ko'ra yangilik kiritish, o'zgarish qilish, ilg'or g'oyalarni amaliyotga joriy etish degan ma'noni bildiradi. Texnologik ta'lim jarayonida innovatsion yondashuv — bu o'qitish metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarni yangilash orqali o'quv samaradorligini oshirish demakdir.

Har bir dars — bu kichik tajriba. O'qituvchi unda metod emas, fikrlash tizimini sinaydi. Innovatsion yondashuv o'quvchi-talabalarda nafaqat bilim, balki kasbiy refleksiya, muammoli vaziyatni hal etish ko'nikmasini shakllantiradi. Masalan: klaster, "aqliy hujum", kabi metodlar orqali talaba darsning faol subyekti sifatida shakllanadi.

Texnologik ta'limda interfaol metodlarning roli

Texnologik yo'nalishda o'qitish faqat nazariy bilim bilan cheklanmaydi. Amaliy mashg'ulotlarda talaba o'z qo'li bilan tajriba qiladi, loyiha yaratadi, fikrini asoslaydi. Shu



jarayonni samarali tashkil etishda interfaol metodlar alohida o'rin tutadi. Chunki bu metodlar o'quvchini faollikka undab, uni darsning markaziga olib chiqsa. Innovatsion ta'lim texnologiyalari texnik yo'nalishlarda o'quv jarayonini faollashtirib, talabani faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi. Bu esa talabaniing tahliliy fikrlashini, jarayonni tushunish darajasini, amaliy ko'nikmasini hamda texnik yechim yaratish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.

Texnologik ta'limda innovatsion metodlardan foydalanish zaruriyati

Texnologik ta'limning o'ziga xosligi shundaki, unda har bir jarayon amaliy faoliyatga tayangan bo'lib, o'quvchi jarayonni ko'rib, tushunib, bajara olishga erishishi kerak. Shu bois o'qitish faqat ma'lumot berish bilan cheklanmaydi; balki: talabaniing mustaqil izlanishini faollashtirish, texnik fikrlashni kengaytirish, o'z ishini baholash va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish, kabi vazifalar ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Bu maqsadlarga erishishda o'quv jarayoniga mos innovatsion metodlar qo'llanilishi zarur.

Texnologik ta'limda qo'llaniladigan asosiy innovatsion metodlar (qisqacha bayon)

Quyida texnologik ta'lim jarayonida eng ko'p qo'llanadigan interfaol metodlarning qisqa tavsifi keltiriladi. **"Pinboard"** metodi. Talabalar mavzu bo'yicha o'z fikrlarini kichik kartochkalarga yozadi va doskaga yopishtiradi. Keyin ushbu fikrlar guruhlanib, umumiy xulosa shakllantiriladi.

Ahamiyati: fikrlar tez yig'iladi, talabalar erkin o'z fikrini bildirishga o'rganadi." **Debat metodi** "Talabalar ikki guruhga bo'linib, texnik masala bo'yicha qarama-qarshi nuqtai nazarni himoya qiladilar. Ahamiyati: asoslab gapirish, tanqidiy fikrlash va texnik yechimlarni tahlil qilish ko'nikmasini kuchaytiradi. **"Fikrlash zanjiri"** metodi. Talabalar navbat bilan mavzu bo'yicha bitta fikr aytadi va keyingisi shu fikrni davom ettiradi. Ahamiyati: mantiqiy ketma-ketlikni saqlab fikrlash, tushunchalarni bog'lash va mavzuni tizimli anglash rivojlanadi. **"Keys-stadi"** metodi. Talabalarga real hayotdan olingan texnik vaziyat beriladi. Ular muammoni tahlil qiladi, bir nechta yechim variantini taklif etadi va eng maqbulini tanlaydi. Ahamiyati: muammoli vaziyatni tahlil qilish, qaror qabul qilish va texnik tafakkurni rivojlantiradi.

"Ushbu maqolada men texnologik ta'limdagi amaliy jarayonlarni samarali o'zlashtirish uchun o'z tajribamga tayanib, yangi pedagogik yondashuv, **"Ko'rsat - bajar - solishtir"** metodini taklif qilaman. Metod uch bosqichdan iborat:

1) Ko'rsatish

O'qituvchi texnik jarayonni to'g'ri ketma-ketlikda ko'rsatadi: asbobni ushlab, xavfsizlik, aniqlik talablari va asosiy texnologik harakatlar namoyish qilinadi.

2) Bajarish

Talaba o'z amaliy faoliyatida ushbu jarayonni mustaqil qaytaradi. Bu bosqich talabaniing nazariy bilimlarini real harakatga aylantirishga xizmat qiladi.

3) Solishtirish

Talaba bajargan ishini namuna bilan solishtirib, farqlarni ko'radi, xatolarni tahlil qiladi va to'g'rilaydi. Shu orqali reflektiv ko'nikma shakllanadi.

Metodning avzalliklari:

amaliy ko'nikma tez shakllanadi;



talaba o'z xatosini o'zi aniqlaydi va tahlil qiladi;
jarayonni ko'rib-bajarib-anglash mexanizmi kuchayadi;
texnik tafakkur va mas'uliyatni oshiradi.

Bu metod ayniqsa yog'ochga ishlov berish, metallga ishlov berish, chizmachilik, modellashtirish va montaj kabi amaliy darslarda yuqori natija beradi.

Xulosa. Texnologik ta'limda innovatsion metodlardan foydalanish o'quv jarayonini jonlantirib, talabada mustaqil fikrlash, tahlil qilish, baholash va amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi. Pinboard, Debat, Fikrlar zanjiri va Keys-stadi metodlari mavzuni chuqurroq anglashga yordam bersa, "Ko'rsat – bajar – solishtir" metodi talabaning amaliy tayyorgarligini kuchaytiruvchi eng sodda va samarali yondashuv sifatida ajralib turadi. Innovatsion metodlar uyg'un qo'llanganda texnologik ta'limning sifati oshadi va talaba real ishlab chiqarish jarayoniga tayyor bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. — Qarshi: Nasaf, 2000.
2. Musurmonova O.M., Yo'ldosheva S.M., Xoshimova M.K. Kasbiy malaka va pedagogik mahorat. — Toshkent, 2009.
3. Mirzajanov D. Seminar-praktikum shaklida dars mashg'ulotlarini loyihalash. — Ta'lim texnologiyalari jurnali, 2006.
4. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
5. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.
6. Osborn A. Applied Imagination. — Brainstorming va Pinboard metodining nazariy asosi.
7. International Debate Education Association (IDEA). Debate Methodology Handbook.
8. Harvard Business School. Case Study Teaching Notes.
9. Dewey J. Experience and Education. — Muammoli vaziyat, tajriba orqali o'qitish tamoyillari.
10. Zamonaviy interfaol metodlar bo'yicha o'zbek metodik qo'llanmalari (Fikrlar zanjiri metodi uchun umumiy nazariy asos).